

**TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li

<https://orcid.org/0009-0007-3683-7549>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Soliq siyosatini liberallashtirish, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash yo'llari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *soliqqa tortish, tadbirkorlik sub'ekti, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, iqtisodiy o'sish, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.*

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, adolatli va qulay soliqqa tortish tizimining mavjudligiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq yukini maqbullashtirish va soliq ma'murchiligini soddalashtirish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tizimi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, raqamlashtirish darajasini oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, soliq ma'murchiligidagi ayrim murakkabliklar, hisobotlarning ko'pligi,

tekshiruvlarning takroriyliigi va soliqlarni boshqarishdagi nomutanosibliklar tadbirkorlik faoliyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

1. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishning ahamiyati. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish – davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sishni boshqarish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va samarali raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Soliq tizimining sodda, barqaror va prognoz qilinadigan bo'lishi tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi.

2. Takomillashtirishni talab qiladigan asosiy masalalar.

Soliq yukining yuqoriligi va notekis taqsimlanishi. Ayrim kichik biznes uchun soliq stavkalari nisbatan qulay bo'lsa-da, o'rta va yirik biznes sub'ektlari uchun soliq yukining og'ir bo'lishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aylanma soliq, QQS, foyda solig'i hisob-kitoblaridagi murakkablik tadbirkorlar zimmasiga ortiqcha yuk soladi.

Soliq ma'murchiligining murakkabligi. Soliq hisobotlari ko'pligi, tizimning turli elektron portal va platformalarga bo'linib ketganligi, tekshiruvlarning ko'pligi va batafsilligi soliq to'lovchilar uchun noqulaylik tug'diradi.

Yashirin iqtisodiyot va soliq bazasining torligi. Rasmiylashtirilmagan mehnat, naqd pul aylanmalari, raqobatga zid "soya biznesi" faoliyati soliq tushumlarini pasaytiradi.

Soliq qonunchiligining tez-tez o'zgarishi. Tez-tez o'zgaradigan normativlar barqarorlikni buzadi, tadbirkorlar uzoq muddatli biznes-rejalar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Soliq imtiyozlarining tizimlashtirilmaganligi. Imtiyozlar juda ko'p va ular ba'zida maqsadli emas, katta kompaniyalar imtiyozdan ko'proq foydalanadi, kichik biznes esa to'liq foydalana olmaydi.

Tadbirkorlik sub'ektlari soliqqa tortishdagi dolzarb muammolar.

QQS tizimidagi muammolar. QQS qaytarish jarayonining sekinligi, elektron hisob-faktura bilan bog'liq texnik nosozliklar, soliq qarzdorligi tufayli avtomatik bloklanish holatlari.

Aylanmadan olinadigan soliqda. 4% yoki 2% stavkalar ayrim sohalar uchun yuqori bo'lishi, rentabelligi past bizneslar uchun soliq yukini oshiradi.

Foyda solig'i bo'yicha. Xarajatlar tarkibini tan olishdagi cheklovlar, asbob-uskunalar amortizatsiyasini hisoblashdagi cheklangan koeffitsiyentlar.

“Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish” g'oyasi alohida bir davlatda yoki aniq bir sanada paydo bo'lgan emas — bu jarayon bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bosqichma-bosqich shakllangan.

1-yo'nalish. 1.1. Aholi va tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyozlar berish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha:

a) 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1 yanvarga qadar ishga qabul qilingan kambag'al oila a'zolari (ish haqi kamida 1,7 mln.so'mni tashkil qilganda) uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi (amalda 12%);

b) 2024-yil 1-sentabrdan 2027-yil 1-sentabrga qadar tadbirkorlar tomonidan kasbga o'rgatish uchun ishga qabul qilingan maktab, kollej va texnikum o'quvchilariga daromad solig'i hamda ularning oylik ish haqiga hisoblangan ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilandi (amalda 12%);

v) 2028-yil 1-yanvarga qadar magistral yo'llar bo'yida ko'chma savdoni tashkil qilgan yoshlar (30 yoshgacha) faoliyatining dastlabki 6 oyi davomida soliqlarni to'lashdan ozod etildi;

g) 2029-yil 1-yanvarga qadar nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan daromadlar (soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromadining kamida 90 foizini tashkil etgan) foyda solig'ini to'lashdan ozod etildi;

Nashriyot va matbaa korxonalari ixtiyorida yiliga 600,0 mln.so'm mablag' qoladi.

d) Ay-Ti park rezidentlariga QQSdan tashqari barcha soliqlarni (foyda, yer, mol-mulk, suv solig'i, aylanma solig'i, ijtimoiy soliq) to'lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar 2040-yil 1-yanvarga qadar (amalda 2028-yil 1-yanvargacha edi) uzaytirilmoqda (14.10.2024 yildagi PF–157-son Farmoni);

Mazkur imtiyoz eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar va 18 yoshdan oshgan bitiruvchilarning 50 foizdan ortiq qismi eksportchi korxonalarga

ishga joylashgan Ay-Ti ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 1 trln so'mgacha mablag' qolishi kutilmoqda.

y) 2025-yil 1-fevraldan 2040-yil 1-yanvarga qadar eksport hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan Ay-Ti park rezidentlarining ta'sischilariga dividend solig'i 5 foiz (amalda 10 foiz) etib belgilanmoqda;

Ta'sischilar ixtiyorida 10,7 mlrd so'm mablag'lar qoladi.

j) 2025-yil 1-fevraldan 2030-yil 1-yanvarga qadar eksport hajmi yiliga 10 mln. dollardan oshgan Ay-Ti park rezidentlariga xizmat ko'rsatgan norezidentlar foyda solig'idan ozod etiladi;

z) nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari 2030 yil 1 yanvarga qadar (22.11.2024-yildagi PQ-403-son):

– barcha turdagi soliqlardan (bundan ijtimoiy soliq mustasno);

Bunda bo'shaydigan mablag'lar zamonaviy o'quv qo'llanmalari, asbob-uskunalarni sotib olish, binolarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun maqsadli yo'naltiriladi.

– chet el o'qituvchilari va mutaxassisleri daromad solig'i hamda ularning oylik ish haqiga hisoblangan ijtimoiy soliqdan;

– O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, adabiyotlar va moddiy-texnika resurslari importi QQSdan ozod qilinishi belgilandi;

Tadbirkorlar ixtiyorida 350 mlrd.so'm mablag'lar qoladi.

i) qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatishni rag'batlantirish maqsadida (16.02.2023-yildagi PQ-57-son):

– yuridik shaxslar umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganda:

ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk va yer solig'ini to'lashdan ozod qilinadi;

ushbu qurilmalar orqali elektr energiyasini ishlab chiqarib umumiy tarmoqqa sotganda foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi;

kayta tiklanuvchi energiya manbalari kurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran 3-yil mobaynida, kuyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bulmagan quvvatga eta elektr energiyasini to'plash tizimi bilan quyosh panellari o'rnatilganda esa - ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran 10-yil mobaynida qo'llaniladi.

jismoniy shaxslar 1 kVtdan 100 kVtgacha qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganda o'rnatilgan oydan e'tiboran 3 yil davomida, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to'plash tizimi bilan quyosh panellari o'rnatilganda esa - ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran 10 yil mobaynida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozdan – 750 ming so'm, yer solig'i bo'yicha – 375 ming so'mdan oshmagan miqdorda imtiyozdan foydalanishi nazarda tutilmoqda;

Mazkur imtiyoz hisobiga aholi va tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 53,4 mlrd.so'm mablag' qoladi.

Jismoniy shaxslarga tegishli ob'ektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga Davlat budjetidan 1000 so'mdan subsidiya ajratiladi. Bunda:

subsidiya to'lovlari jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydi va soliqqa tortilmaydi;

subsidiya soliq organlari tomonidan har oyda «Soliq» mobil ilovasi orqali keyingi oyning 25-sanasiga qadar fuqarolarning bank plastik kartalariga o'tkazib beriladi.

y) tadbirkorlarga ko'p qavatli ishlab chiqarish binolari foydalanishga topshirilgandan boshlab (bundan respublika shaharlarida, Toshkent viloyatining Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida joylashgan binolardan tashqari) 3-yil muddatga mol-mulk solig'i bo'yicha 0,9 dan 0,5 gacha pasaytiruvchi koeffitsient qo'llash huquqi berildi;

Bunda, Yangi qurilgan ko'p qavatli ishlab chiqarish binolari bo'yicha soliq to'lovchilar hisoblangan soliq summasini 3 qavatli binoga nisbatan — 0,9, 4 qavatli binoga — 0,8, 5 qavatli binoga — 0,7, 6 qavatli binoga — 0,6, 7 va undan yuqori qavatli binoga — 0,5 pasaytiruvchi koeffitsient qo'llanilgan holda to'laydi.

Buning natijasida 6011 ta ob'ekt bo'yicha 302,3 mlrd.so'mlik soliq imtiyozi qo'llanilishi mumkin.

k) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan budjet subsidiyalari daromad solig'ini hisoblashda jismoniy shaxslarning jami daromadiga kiritilmaydi.

l) Budjet tashkilotlari tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo'yicha barcha turdagi soliqlarni to'lashdan 2027-yil 1-yanvarga (2024-yil 1-yanvarga qadar edi) qadar ozod qilindi, bundan ijtimoiy soliq mustasno;

m) 2025-yil 1-yanvardan 2030-yil 1-yanvargacha tadbirkorlik sub'ektlari foyda solig'ini hisoblashda o'z mablag'lari hisobidan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari binolarini qurish bilan bog'liq xarajatlarni 2-yil davomida teng ulushlarda ushbu binolar qiymatining amortizatsiya tarzida chegirib tashlanadigan xarajatlarga kiritishga haqli.

Xulosa va takliflar.

Soddalashtirilgan tizimni rivojlantirish — kichik biznes uchun soliq stavkalarini yengillashtirish va hisobot yukini kamaytirish. Soliq imtiyozlarini optimallashtirish — faqat innovatsion va ijtimoiy loyihalar uchun imtiyoz berish. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash — elektron hisob-faktura va onlayn kassa tizimini majburiy joriy etish.

Adabiyotlar/Интератыва/Reference:

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi <https://lex.uz/docs/4674902>